

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**APREL, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

**TOSHKENT-2026**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil).– 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 10-aprel

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### IQTISODIYOT FANLARI

*Do'simov Shohruh*

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI  
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..... 5-10

### FILOLOGIYA FANLARI

*Zayniddinova Sevinch*

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO'ZNING MOHIYATI ..... 11-14

*Pulatova Asal*

O'ZBEK XALQI MENTALITETIDAGI ASOSIY QADRIYATLARNI  
IFODALOVCHI KONSEPTLAR ..... 15-18

*Burxonova Gulmira*

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI  
SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI ..... 19-23

*Nosirova Shoiraxon*

INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA  
KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI ..... 24-28

*Султонова Лолахон*

ПОЭТИКА УМОЛЧАНИЯ И ВЫТЕСНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ТРАВМАТИЧЕСКОЙ  
ПАМЯТИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО "ОСТАТОК ДНЯ") ..... 29-33

### YURIDIK FANLAR

*Kalimbetov Nesip*

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI  
KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI ..... 34-38

### PEDAGOGIKA FANLARI

*Tojiboyeva Shohistaxon*

LINGVODIDAKTIK RESURSLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI  
RIVOJLANTIRISH MODELI ..... 39-41

*Баймуратова Ирина*

ПРИМЕНЕНИЕ ИИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ЯДЕРНАЯ МЕДИЦИНА И  
РАДИАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ..... 42-44

*Zokirova Ma'suma*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI  
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI ..... 45-49

*Maxkamova Husnida*

XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITI" TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK  
FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI ..... 50-54

*Qo'chqarov Bahodir*

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION  
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI ..... 55-60

*Adasheva Xilola*

TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIDA YASHASHIGA  
ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHNING HOLATI ..... 61-66

*Abduqahhorova Mahliyo*

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI T

AKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI ..... 67-70

## YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI

**Abduqahhorova Mahliyo Farhodjon qizi**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarida yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning amaliy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvni o'qitishda jarayonli yondashuvning o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Nazariy tahlil va empirik kuzatishlar asosida yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda bosqichma-bosqich yondashuvning samaradorligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yozuv jarayonini rejalashtirish, qayta ko'rib chiqish va tahrirlash bosqichlari o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, yozma nutqining izchilligini hamda grammatik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur yondashuv o'quvchilarning mustaqil ishlash va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yozuv kompetensiyasi, jarayonli yondashuv, yuqori sinf o'quvchilari, yozuv jarayoni, metodika, tahrirlash, mantiqiy izchillik, EFL, pedagogik yondashuv.

---

## PRACTICAL-METHODICAL BASES OF IMPROVING WRITING COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION STUDENTS

**Abduqahhorova Mahliyo Farhodjon qizi**

PhD student at Namangan State University

**Annotation.** This article analyzes the practical and methodological foundations for improving writing competence among senior high school students. The study scientifically substantiates the role and significance of the process-based approach in teaching writing. Based on theoretical analysis and empirical observation, the effectiveness of a step-by-step approach to developing writing competence was identified. The results indicate that planning, revising, and editing stages of the writing process enhance students' logical thinking, coherence in written expression, and grammatical proficiency. Moreover, this approach fosters students' independent work and self-regulation skills. Practical and methodological recommendations for improving writing competence are provided.

**Keywords:** writing competence, process-based approach, senior high school students, writing process, methodology, editing, coherence, EFL, pedagogical approach.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i7/n14>

### KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida chet tillarni o'qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan yozuv ko'nikmasi o'quvchilarning fikrni yozma shaklda aniq, mantiqiy va izchil ifodalash imkoniyatini belgilaydi. Shu jihatdan, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarida yozuv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yozuv faoliyati nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kognitiv va metakognitiv ko'nikmalarni ham talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli uni samarali o'qitish uchun an'anaviy metodlardan tashqari zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayanish zarur.

Yozuv kompetensiyasi til o'rganish jarayonida shakllanadigan ko'p komponentli tizim bo'lib, u o'quvchining til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish, matnni mantiqan tashkil

etish va kommunikativ vazifani to'liq bajarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar yozuvni faqat grammatik jihatdan to'g'ri gaplar yig'indisi sifatida emas, balki mazmunan yaxlit va kommunikativ jihatdan samarali matn yaratish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Buyuk Britaniyalik olim Tricia Hedge yozuv faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va tahrirlash bosqichlarini o'z ichiga olgan murakkab kognitiv faoliyat sifatida izohlaydi. Bu esa o'quvchidan nafaqat til bilimlarini, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini ham talab qiladi. Shuningdek, yozuv kompetensiyasi diskursiv va pragmatik jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, o'quvchi matnni nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri tuzishi, balki uni muayyan auditoriyaga mos ravishda tashkil eta olishi lozim.

Yozuvni o'qitish metodikasida bir nechta asosiy yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular orasida jarayonli va mahsulotga yo'naltirilgan yondashuvlar eng ko'p qo'llaniladiganlari hisoblanadi. Jarayonli yondashuv yozuvni bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat sifatida talqin etadi. Bu yondashuvga ko'ra, yozuv g'oyalarni ishlab chiqishdan boshlanib, ularni rejalashtirish, dastlabki variantni yaratish, qayta ko'rib chiqish va tahrirlash orqali yakuniy matnga aylantiriladi. Tompkins ushbu jarayonning har bir bosqichi o'quvchining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda, mahsulotga yo'naltirilgan yondashuvda asosiy e'tibor yakuniy natijaga qaratiladi. O'quvchilar namunaviy matnlar asosida yozishni o'rganadilar va grammatik to'g'rilik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Biroq, tadqiqotlar bu yondashuv o'quvchilarning ijodkorligini yetarli darajada rivojlantirmasligini ko'rsatadi. Yuqori sinf o'quvchilarida yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, yozuvni bosqichli tashkil etish o'quvchilarga murakkab vazifani kichik qismlarga ajratib bajarish imkonini beradi. Bu esa ularning yozuv jarayonini ongli ravishda boshqarishiga yordam beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlashga jalb qilish ham samarali natija beradi. Xususan, peer-review usuli orqali o'quvchilar bir-birining ishini tahlil qiladi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda xatolarni chuqurroq anglashga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan beriladigan feedback ham yozuv kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Buyuk Britaniyalik tilshunos olim Ken Hyland fikricha, samarali feedback o'quvchining nafaqat xatolarini ko'rsatishi, balki ularni qanday tuzatish mumkinligini ham tushuntirishi lozim. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalar o'quvchilarga yozuv jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqot yuqori sinf o'quvchilarida yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning amaliy-uslubiy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda nazariy va empirik metodlarning kompleks qo'llanilishi ta'minlandi. Tadqiqot jarayonida yozuvni o'qitish metodikasiga oid zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinib, ularning amaliy samaradorligi o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishda ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish muhim o'rin tutdi. Xususan, yozuv kompetensiyasining mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirishga qaratilgan jarayonli yondashuvning nazariy jihatlari o'rganildi. Shuningdek, turli ilmiy manbalarda ilgari surilgan qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, umumlashtirish asosida tadqiqotning metodik yo'nalishi belgilab olindi.

Empirik bosqichda esa kuzatish, pedagogik tajriba va yozma ishlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Tajriba jarayonida o'quvchilarning yozuv faoliyati muntazam kuzatilib, ularning yozma ishlaridagi o'zgarishlar tizimli ravishda qayd etib borildi.

Pedagogik tajriba jarayonida yozuvni o'qitishda jarayonli yondashuv elementlari amaliyotga joriy etildi. Xususan, o'quvchilar yozuv topshiriqlarini bajarishda g'oyalarni ishlab chiqish, rejalashtirish, dastlabki variantni yozish, qayta ko'rib chiqish va tahrirlash kabi bosqichlar asosida ishlashga yo'naltirildi. Ushbu jarayon o'quvchilarning mustaqil fikrlash, matnni mantiqan tashkil etish va o'z xatolarini aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning yozma ishlari maxsus mezonlar asosida tahlil qilindi. Baholashda matnning mantiqiy izchilligi (coherence), grammatik to'g'riligi, leksik boyligi hamda umumiy tuzilmasi inobatga olindi. Har bir ko'rsatkich o'quvchilarning yozuv kompetensiyasini aniqlashda muhim mezon sifatida qaraldi. Olingan natijalarni qayta ishlashda taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari asosida yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan samarali amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu tariqa, mazkur metodologiya yozuv kompetensiyasini takomillashtirish jarayonini har tomonlama o'rganish hamda uning samarali yo'llarini aniqlash imkonini berdi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan kuzatishlar va yozma ishlar tahlili yuqori sinf o'quvchilarida yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda jarayonli yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi. Dastlabki bosqichda o'quvchilarning yozma ishlarida mantiqiy izchillikning yetarli darajada shakllanmaganligi, fikrlarning uzviy bog'lanmaganligi hamda grammatik xatolarning ko'pligi kuzatildi. Ayniqsa, o'quvchilar tomonidan matnni rejalashtirish va qayta ko'rib chiqish bosqichlariga yetarli e'tibor berilmasligi aniqlangan. Tajriba jarayonida yozuvni bosqichma-bosqich tashkil etishga asoslangan jarayonli yondashuv elementlari joriy etilgach, o'quvchilarning yozma ishlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, o'quvchilar matn tuzishda avvaldan rejalashtirishga ko'proq e'tibor bera boshladilar, bu esa ularning fikrlarini aniq va izchil ifodalashiga imkon yaratdi. Natijada matnlarning mantiqiy tuzilishi yaxshilandi, kirish, asosiy qism va xulosa o'rtasidagi bog'liqlik ancha mustahkamlandi. Shuningdek, qayta ko'rib chiqish va tahrirlash bosqichlarining muntazam qo'llanilishi o'quvchilarning o'z xatolarini aniqlash va tuzatish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa grammatik va leksik xatolar sonining kamayishiga olib keldi. O'quvchilar yozuvni bir martalik faoliyat sifatida emas, balki takomillashtiriladigan jarayon sifatida qabul qila boshladilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, jarayonli yondashuv o'quvchilarning yozuvga bo'lgan munosabatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ular yozuv topshiriqlarini bajarishda faolroq ishtirok eta boshladilar hamda o'z fikrlarini erkinroq ifodalashga intildilar. Bu esa o'quvchilarning yozuvga bo'lgan motivatsiyasining oshganligini ko'rsatadi. Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan qarashlar bilan hamohangdir. Xususan, Tompkins yozuvni bosqichma-bosqich tashkil etish o'quvchilarning yozuv ko'nikmalarini izchil rivojlantirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Hyland yozuv jarayonida feedback va tahrirlash bosqichlarining muhimligini alohida qayd etadi. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda jarayonli yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning nafaqat yozuv sifati,

balki ularning mustaqil fikrlash va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa mazkur yondashuvning amaliy-uslubiy jihatdan samarali ekanligini ko'rsatadi.

### **XULOSA**

Mazkur tadqiqot yuqori sinf o'quvchilarida yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning amaliy-uslubiy asoslarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yozuvni o'qitishda jarayonli yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xususan, yozuv jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishi o'quvchilarning fikrni mantiqan ifodalash, matn tuzilishini to'g'ri tashkil etish hamda grammatik jihatdan to'g'ri yozish ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, qayta ko'rib chiqish va tahrirlash bosqichlari o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda jarayonli yondashuvni keng qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat yozuv sifati, balki ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Badger, R., & White, G. (2000). A process genre approach to teaching writing. *ELT Journal*, 54(2), 153–160.
2. Harmer, J. (2004). *How to teach writing*. Harlow: Pearson Education.
3. Hedge, T. (2000). *Teaching and Learning in the Language Classroom*. Oxford: Oxford University Press.
4. Hyland, K. (2003). *Second Language Writing*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Tompkins, G. E. (1994). *Teaching Writing: Balancing Process and Product*. Columbus, OH: Merrill.
6. Kadmiry, M. (2021). The comparison between the process-oriented approach and the product-oriented approach in teaching writing: The case of Moroccan EFL students in Preparatory Classes for the Grandes Ecoles. *Arab World English Journal*, 12(1), 198–214. <https://doi.org/10.24093/awej/vol12no1.14>
7. Bae, J. (2011). *Teaching Process Writing for Intermediate/Advanced Learners in South Korea*.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2026-yil, aprel

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 10-aprel.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.